

## IJTMOIY TARMOQLARNI YOSHLAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRI

Asonova Roziyaxon A'zamjon qizi

Andijon pedagogika instituti 2-bosqich magstranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7178413>

**Annotatsiya.** Bugungi zamон shiddati hayotimizni internet yoki ijtimoiy tarmoqlarsiz aslo tasavvur etib bo'lmasligini namoyon etmoqda. Aksariyat odamlarning faoliyati internet, ijtimoiy tarmoqlar va telegram kanallari orqali dunyoda sodir bo'layotgan kundalik yangiliklardan xabardor bo'lish, ularni bir-biriga uzatish bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Ijtimoy tarmoqlarning bir qator ijobiy taraflari bor bo'lganidek uning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasigasalbiy ta'siri ham mavjud. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning turlari va ularning insonlar, xususan, yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy tarmoq, internet, elektron pochta, globallashuv, ommaviy madaniyat, igromaniya, facebook, ma'naviyat.

## ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ПОВЕДЕНИЕ МОЛОДЕЖИ

**Аннотация.** Интенсивность сегодняшнего времени показывает, что наше жизнь невозможно представить без Интернета или социальных сетей. Деятельность большинства людей связана с тем, чтобы быть в курсе ежедневных новостей, происходящих в мире через Интернет, социальные сети и телеграм-каналы, и передавать их друг другу. Социальные сети имеют ряд положительных сторон, а также отрицательное влияние на морально-нравственное воспитание молодежи. В статье описаны виды социальных сетей и их значение в воспитании людей, особенно молодежи.

**Ключевые слова:** социальная сеть, Интернет, электронная почта, глобализация, массовая культура, игромания, Facebook, духовность.

## INFLUENCE OF SOCIAL NETWORKS ON YOUTH BEHAVIOR

**Abstract.** The intensity of today's times shows that our life is unimaginable without the Internet or social networks. The activities of most people are related to being aware of the daily news happening in the world through the Internet, social networks and telegram channels, and transmitting them to each other. Social networks have a number of positive sides, as well as their negative impact on the moral and moral education of young people. The article describes the types of social networks and their importance in the education of people, especially young people.

**Keywords:** social network, Internet, e-mail, globalization, mass culture, igromania, Facebook, spirituality.

## KIRISH

“Ijtimoiy tarmoq” tushunchasi 1954-yilda paydo bo'lganini va albatta, Internetga hech qanday aloqasi yo'qligini hamma ham bilmaydi va ular bu hodisani o'tgan asrning 30-yillarida o'rganishni boshladilar [5]. Konseptsiyani sotsiolog Jeyms Barns kiritgan: “ijtimoiy tarmoq” – bu ijtimoiy obyektlar (odamlar yoki tashkilotlar) va ular o'rtaisdagi aloqlar (ijtimoiy munosabatlar) bo'lgan tugunlar guruhidan iborat ijtimoiy tuzilmadir [7].

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Ilk bor odamlar o'rtaisdagi muloqot vositasi sifatida ijtimoiy tarmoqning elektron pochta ko'rinishi paydo bo'ldi. Bu kompyuter tarmoqlari orqali bog'lanishning ilk ko'rinishi edi. Dastlab ikki kishi o'rtaida ma'lumot almashish uchun yaratilgan elektron ma'lumot almashuv

keyinchalik guruuhlar o`rtasidagi muloqot vositasiga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlar haqida ilk bora o`z tasavvurlarini bayon qilgan olimlar R.Solomonoff va A.Rapoport o`tgan asr o`rtalarida muloqotning virtual ko`rinishi haqida o`z fikrlarini bayon qilishgan. Vengriyalik mutaxassislar P.Erdos va A.Renilar ijtimoiy tarmoqlarni shakllantirish borasidagi tasavvurlarini aytib o`tishgan. Internet tarmog`ida insonlar o`rtasidagi muloqotning avj olishi, rivojlanib ketishini esa olimlar ijtimoiy tarmoqlarning tezkor faoliyatini bilash bog`lashadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz va dunyo miqyosida sodir bo`layotgan o`zgarishlar, voqeahodisalar, yangiliklar to`g`risidagi ma'lumotlar barcha ijtimoiy tarmoqlarda aks etib boryapti. Bu yangiliklardan xabardor bo`lishda esa internet tizimi, mobil telefonlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ancha qulay hisoblanadi. Bundan tashqari, o`zaro ma'lumot almashish yoki biror voqeahodisaga munosabat bildirish, o`z fikrini bayon etish yoki o`zaro muloqot qilishda ijtimoiy tarmoqlar juda qulay vositadir. Bularning bari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar uchun o`z fikrlari, qarashlari va tuyg'ularini bayon qilishda tengsiz imkoniyat ekanligini ko`rsatmoqda.

Texnik taraqqiy etgan jamiyatda yashar ekanmiz, internet tizimining ijtimoiy tarmog`idan olingan narsa to`g`ri, ishonchli va zararsiz ekanini bilishimiz kerak. Yaxshi-yomonning farqiga bormagan yoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilgan har qanday ma'lumot-xabarlarni haqiqat deb qabul qilayotgani jiddiy xavotirga solmoqda. Ular g`arazli maqsadlari yo`lida yoshlarda buzg`unchilik, begunoh odamlar qonini nohaq to`kish kabi jinoyatlarni avj oldirib, fuqarolar tinchligini buzib, xalq orasida nizo chiqarishga harakat qilishmoqda. Sarhadsiz internet dunyosiga kirgan yoshlar vaqt, umr g`animat ekanini doimo yodda saqlamog`i lozim. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko`ra insonlarning ijtimoiy tarmoqda sarflaydigan minimal vaqt 3 soatni tashkil etadi. Bir qarashda kishini xavotirga soladigan hech narsa yo`qdek [3]. Ammo bu global tarmoq bepoyon hududlarga ega bo`lib, unda inson adashib soatlab, kunlarini samarasiz o`tkazib yuborish bilan birga yoshlarimiz o`jar va qaysar, keksalarning aytganini nazar-pisandga olmaydi, ajdodlar qadriyatlarini inkor etadi [2].

Kun sayin jadal rivojlanib borayotgan axborot asrida zamonaviy texnika vositalaridan foydalanmaslikning yoki ularga murojaat etmaslikning esa hech bir iloji yo`q. Chunki, inson dunyoqarashining shakllanishida, ma`naviy olamining yanada kengayishida, ayniqsa kompyuter texnologiyasi asosiy vosita rolini. Hozirgi kun nuqtai nazar bilan qaraydigan bo`lsak, allaqachon global tarmoqqa aylanib ulgurgan internet o`zining tezkorligi chegara bilmasligi bilan ommaviy axborot vositalari orasida eng muhim sohaga aylanib ulgurdi. Unda faoliyat yuritayotgan ijtimoiy tarmoqlar: Kun.uz, Daryo.uz kabi saytlar orqali har soatda yurtimiz va jahonga oid eng so`ngi yangiliklardan boxabar bo`lib turamiz. Shiddat bilan yuksalib borayotgan fan-texnika asrida, internet va ijtimoiy tarmoqlarining ayniqsa yoshlar ma`naviyatiga, ularning yangiliklarga chanqoq ongiga salbiy ta`sirining ham guvohi bo`lyapmiz. Zimdan e`tibor bersak, internet kafelariga serqatnov yoshlar (ayniqsa o`smirlar) u yerga borishib, har xil buzg`unchi g`oyalar ruhidagi ur-sur, o`ldir-yondir kompyuter o`yinlarini tomosha qilayotganligini, tuturuqsiz narsalar bilan vaqtlarini besamar o`tkazayotganligiga guvoh bo`lapmiz. Yaqinda yana bir atama tilimizda ishlatila boshlandi. Bu igromaniya tushunchasi. Hash-pash deguncha ommalashib ham ketmoqda. Qisqacha ta`rif beradigan bo`lsak,

## TADQIQOT NATIJALARI

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, davlatimiz qo'lga kiritayotgan olamshumul yutuqlarni jahon media makonida keng targ'ib qilish hamda inson ma'naviyatini har tomonlama yuksaltirishga xizmat qiladigan juda ko'plab ma'lumotlar yoritib borilmoqda. Shu bilan birga, milliy mentalitetimizga raxna soluvchi turli ig'volar, g'iybatlar, milliy madaniyatlarning kushandasi bo'lgan – «ommaviy madaniyat» niqobidagi tahdid va boshqa illatlar xavf solishi hamon davom etmoqda. Kishining ta'bini xira qiladigan jihat, ijtimoiy tarmoqlar orqali «ommaviy madaniyat» niqobi ostida yurtimizga buzuq g'oyalar, axloqsizlik, g'ayriinsoniy odatlar kirib kelmoqda. Millatning tarixi, o'tmishdagi qadriyatlarini rad etuvchi, «ommaviy madaniyat»ni targ'ib etishga undovchi mafkuraviy kurashlarning barchasi aynan ijtimoiy tarmoqlar orqali olib borilmoqda. Inson ongi, qalbi va ruhiyatiga tazyiq o'tkazishga harakat qilayotgan g'arazli kuchlar axborot xurujlarini amalga oshirishda eng ta'sirchan vositalar sifatida internet tizimi va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanishmoqda. Ayni paytda internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan milliy ma'naviyatimizga yot g'oyalar va axborot xurujlarining yoshlari tomonidan qabul qilinayotganligi va uning oqibatlari kishini tashvishga solmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali inson ongi va dunyoqarashini o'zgartirish maqsadida g'oyaviy, mafkuraviy ta'sir o'tkazish, dizinformatsion axborot tarqatish kabi holatlar, ayniqsa, hushyorlikni talab etmoqda. Axborot xurujida inson ongi, millat ruhiyati nishonga olinadi. Aslini olganda, axborot xurujlarini amalga oshirishda, avvalo, inson ongi va qalbini zabit etish orqali mafkuraviy ta'sir o'tkazish g'oyasi yotadi. Mazkur holat davlatlarning barqarorligiga raxna solib, millatning tarixan shakllangan qadriyatları, uning o'ziga xosligi, millat va xalq sifatida yashab qolishini xavf ostiga qo'yadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev "...eng avvalo,yoshlari va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini,uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilishda, jahon ilm-fani va adabiyot yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish haqida bormoqda. Bu borada zamonaiviy kompyuter texnologiyalari va ayniqsa internet tizimi bidan ancha ildamlab ketganini ham inobatga olish zarur", degan [1].

## MUHOKAMA

Virtual muloqotning avj olishi jonli muloqotga bo'lgan ehtiyojning pasayib ketishiga sabab bo'lmoqda. Shuni aytish kerakki, bugungi kunda jamiyatimizda o'zining doimiy ko'rishib turadigan yaqinlari bilan ham ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qiluvchi insonlar ko'pchilikni tashkil etmoqda. Bunday muloqot esa real vogelikdan ayri holda kechadi va inson o'zining hissiy kechinmalarini tasvirlab bera olmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, shiddatli global o'zgarishlar davrida yoshlari ong-u shuurini internet tizimining ijtimoiy tarmog'i orqali kirib kelayotgan zararli g'oya va ta'sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki, dunyoda g'oyaviy hamda informatsion xurujlar, turli mafkuraviy tahdidlar avj olayotgan bugungi kunda yoshlari amalga oshirish, ularning tafakkurida sog'lom dunyoqarash asoslarini shakllantirish eng muhim vazifadir.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "... biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz". Binobarin, bugungi davr bizdan dunyo miqyosida bo'hton va uydirmalarni tarqatish orqali yoshlari amalga oshirish, o'z qarmog'iga

ilintirishga intilayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi turli salbiy holatlarga hech qanday imkon bermasligimizni talab etmoqda. Zero, milliy ma'naviyatimizni asrash orqali yoshlarimizni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalab, o'z xalqiga, yurtiga bo'lgan muhabbatini oshirish asosiy vazifamizdir.

## REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi k.k //Xalq so'zi,2017 16 yanvar
2. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya T.: "Movaraunnahr", 2016. 5-b.
3. Тарапов П. Энциклопедия высокого ума. М., 1999, с.16
4. Rajabov H.I "Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiyamaliy konferentsiya materiallari T.: "Fan va texnologiya" 2020 yil, 207-b
5. Ташметов, Т. Х. (2020). Миллий ғояни ёшлар онгига сингдиришнинг замонавий усуслари. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 326-331.
6. Tashmetov, T. X. (2020). PROSPECTS FOR RELYING ON THE BASIS OF THE NATIONAL IDEA IN PROTECTING YOUNG PEOPLE FROM HARD AND HARMFUL IDEAS. International Journal For Innovative Engineering and Management Research, 9(11), p.81-86.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>
8. <https://daryo.uz/>